

XX ASR BIRINCHI CHORAGIDA TURKISTONDA VAQF VA XAYRIYA ISHLARINING O'RTA OSIYO JADID MATBUOTIDA YORITILISHI

Davlatboyeva Vasila Azamat qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti III-bosqich talabasi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 15.04.2026

Revised: 16.04.2026

Accepted: 17.04.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Xayriya, Turkiston,
vaqf, jadidlar,
islohotchilik, gazeta,
matbuot.*

Ushbu maqolada XX asr boshlarida Turkistonda faoliyat yuritgan xayriya va vaqf muassasalari hamda turli ijtimoiy jamiyatlarning tashkil topish jadid matbuoti materiallari asosida tahlil qilinadi. Jadid matbuoti sahifalarida xayriya jamiyatlarining xalq ma'rifatini yuksaltirish, kambag'al va yetim bolalarni qo'llab-quvvatlash, maktablar ochish hamda ta'limni rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan bo'lib, jamiyatlarning faoliyati hamda vaqf mablag'laridan foydalanish masalalarining matbuot sahifalarida aks etishi xususida so'z boradi hamda bular matbuot materiallari asosida yoritiladi.

O'zbek xalqi asrlar davomida xayriya va vaqf mulklarini muntazam ravishda kerakli muassasa, ehtiyojmand kishilar va zarur favqulodda holatlar uchun yo'naltirib turgan. Xayriyalar jamiyatdagi ehtiyojmand qatlamlarga xususan, kambag'allar, yetimlar, bemorlarga ixtiyoriy yordam orqali ko'rsatish bo'lib, bu doimiy tizimga ega bo'lmasdan shaxsiy tashabbuslarga bog'liq bo'ladi. Vaqf esa mulk yoki mablag'ni doimiy ravishda jamiyat foydasiga bag'ishlash bo'lib, undan tushgan daromad madrasa, masjid, maktab, shifoxona, yetimxonalar uchun sarflangan. Xonliklar davrida ham vaqflar juda keng tarqalgan bo'lib, ta'lim va ijtimoiy hayotning asosiy tayanchi bo'lgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib esa, islohotchilik tashabbuslari bilan chiqqan jadidlar xayriya va vaqfni zamonaviy shaklga olib chiqdilar. Ular yangi usul maktablarini ochish, bolalarni bepul o'qitish, milliy ongni uyg'otish, savodsizlikni yo'qotish maqsadida jamiyatlarni ocha boshladilar. Xususan, "Jamiyati xayriya"¹³ va "Tarbiyai atfol"¹⁴ hamda shu kabi jamiyatlar shular jumlasidan edi. Bu jamiyatlar yangi usul maktablari, teatr va matbuotni rivojlantirgan hamda ular o'z faoliyatini dunyoviy va ma'rifiy yo'nalishda, ziyolilar yetakchiligida olib borgan.

¹³ "Jamiyati-xayriya"–(1909-yil): Toshkentda Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqalar tomonidan tuzilgan. Maqsad milliy maktablar ochish va taraqqiyparvar yoshlarni qo'llab-quvvatlash edi.

¹⁴ "Tarbiyayi-atfol"–(Bolalar tarbiyasi) jamiyati (1909-yil): Buxoroda Abdulvohid Burhonov, Homidxo'ja Mehriy va boshqalar tomonidan tashkil etilgan maxfiy jamiyat. Uning maqsadi iste'dodli yoshlarni Istanbulga o'qishga yuborish bo'lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasida amalga oshirilgan islohotlarning Turkiston o'lkasiga ham ta'siri natijasida jamoatchilik faoliyatini qayta tiklash imkoniyati yuzaga kelgan bo'lsa-da, qonunchilik jamoat faoliyatiga faqat xayriya va ma'rifiy jamiyatlar doirasidagina ruxsat bergan edi. Ana shunday sharoitda jadidchilik harakatining asoschisi Ismoil G'aspirinskiy¹⁵ mavjud vaziyatni chuqur anglab, "Tarjimon" gazetasi orqali keng targ'ibot kampaniyasini boshlagan. U turli hududlarda xayriya muassasalarini tashkil etish, shuningdek, xayriya mablag'lari va manbalarini boshqarishning yagona tizimini yaratish g'oyasini ilgari surgan. Ayniqsa, musulmonlar orasida eng keng tarqalgan xayriya shakli — sadaqani tizimli ravishda tashkil etishni birinchi bo'lib taklif qilgan¹⁶.

Mazkur jarayon XIX asr oxirida jamoatchilik faoliyatida qat'iy huquqiy cheklolar bo'lishiga qaramasdan, xayriya va ma'rifat yo'nalishi jamiyatni isloh qilishning qonuniy vositasi sifatida o'rtaga chiqadi. Ismoil Gaspinskiy bu imkoniyatdan samarali foydalanib, xayriyani tashkil etilgan va boshqariladigan tizimga asoslagan. Uning tashabbuslari jadidchilik harakatining ijtimoiy tayanchini mustahkamlab, keyinchalik xayriya va ma'rifiy jamiyatlarning keng rivojlanishiga zamin yaratgan.

Jadidlar tomonidan tashkil etilgan xayriya jamiyatlari orasida "Tarbiyai atfol", "Jamiyati taraqqiyi maorifi Buxoro"¹⁷, "Jamiyati xayriya", "Imdodiya"¹⁸ kabi jamiyatlar eng mashhurlari sifatida tanildi. Bu va boshqa jamiyatlar o'z faoliyatida insonparvarlik tamoyillariga asoslangan beg'araz yordam va xayriya yo'nalishlarini amalga oshirdi. Jumladan, Ismoil G'aspirinskiy, Mahmudxo'ja Behbudiy¹⁹, Munavvarqori Abdurashidxonov²⁰, Abdulla Avloniy²¹, Shakuriy²² va Fitrat²³ kabi jadidlar ezgulik, muruvvat va saxovat an'alarini davom ettirib, xalq hayotida tub yangilanishlar yuz berishi

¹⁵ Ismoil G'aspirinskiy—qrim-tatar millatiga mansub ziyoli qatlam vakili, pedagog, noshir, yirik siyosiy va jamoat arbobi. Jadidchilik asoschilaridan biri deb ham hisoblanadi.

¹⁶ Abdullayev D.N "O'zbekistonda xayriya va homiylikning rivojlanish tarixi" Toshkent— "Innavatsiya Ziyo"—2019 55-b

¹⁷ "Jamiyati taraqqiyi maorifi Buxoro"—Buxoro ilmiy jamiyati — Buxoro Xalq Sovet Respublikasida tashkil etilgan jamiyat (1921) O'lkadagi qad. obidalarni muhofaza qilish, xalq amaliy san'atini rivojlantirish, fan tarixiga oid qo'lyozmalarni yig'ish, arxeologik ashyolar va xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plab tadqiq etish kabi ishlar bilan shug'ullangan.

¹⁸ "Imdodiya"—"Jamiyati Imdodiya "- 1909-yili 15-iyul (ayrim ma'lumotlarda 10-avgust) kuni Toshkentda —"Jamiyati imdodiya" nomi ostida -joriy qilindi. Ushbu muassasa ta'sischilari boshida Toshkent jadidlarining yetakchisi Munavvarqori Abdurashidxonov turgan.

¹⁹ Mahmudxo'ja Behbudiy—(1875–1919). Jadidchilik harakatining asoschilaridan biri, ma'rifatchi, jurnalist, dramaturg va siyosiy faol.

²⁰ Munavvarqori Abdurashidxonov—Turkiston jadidchilik harakatining yuragi bo'lgan siymolardan biridir. U ilm, ta'lim, matbuot va siyosiy faoliyat orqali butun umrini xalqini uyg'otishga sarfladi.

²¹ Abdulla Avloniy—(1878–1934). O'zbek ma'rifatchisi, shoiri, dramaturgi, pedagogi, jadidchilik harakati namoyandasi va davlat arbobi.

²² Abdulqodir Shakuriy—(1875–1943). Samarqandlik o'qituvchi, yangi usul maktablari uchun qator darsliklar muallifi, jurnalist, samarqandlik jadidchilikning mashhur namoyandalardan biri.

²³ Abdurauf Fitrat—o'zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir, zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri, O'rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakili, birinchi o'zbek professori (1929)

uchun fidokorona harakat qilganlar²⁴. Bu davrda Turkistonda xayriya faoliyati o'zgacha tus olib, boy qatlamlardan ziyolilar va ma'rifatparvarlar yetakchi kuchga aylanganini ko'rishimiz mumkin. Jadidlar tashkil etgan xayriya jamiyatlari nafaqat moddiy yordam ko'rsatish, balki ta'lim, madaniyat va milliy ongni rivojlantirish orqali jamiyatni yuksaltirishni maqsad qilgan. Bu jamiyatlar jadidchilik harakatining ijtimoiy tayanchi bo'lib, mustaqillik g'oyalarining keng tarqalishiga xizmat qilgan. Natijada xayriya faoliyati Turkistonda milliy uyg'onish va ijtimoiy faollikning muhim omillaridan biriga aylangan. Bu kabi jamiyatlar ham o'z-o'zidan ochilib, osonlikcha yaxlit tizimga kelib qolmagan. Jamiyat ochilguniga qadar ham, ko'p mehnat talab qilgan. Shu o'rinda Munavvarqori Abdurashidxonovning "Jamiyatlar qanday ochiladi?" nomli maqolasiga nazar tashlasak, bu davrga tegishli yuqoridagi kabi jamiyatlar ochishdagi zarur ishlar xususida so'z yuritgan.

- "Munavvarqori Abdurashidxonov millat taraqqiyotining birinchi va eng muhim bosqichi sifatida maktabni ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, maorif va madaniyat yo'liga kirgan barcha taraqqiy etgan millatlar ishni aynan maktab ochishdan boshlagan. Biroq muallif maktab ochishning o'zi yetarli emasligini, uning uzluksiz faoliyati uchun moddiy va ma'naviy yordam zarurligini qayd etadi. Shu ehtiyojdan kelib chiqib, xayriya asosida faoliyat yurituvchi jamiyatlar tuzish eng to'g'ri yo'l sifatida ko'rsatiladi. Buning uchun esa qat'iyat, sabr va huquqiy bilim muhim ekanini alohida ta'kidlaydi. Chunki, ruxsat olish jarayonida turli to'siqlar va rad javoblari bo'lishi mumkinligini tan oladi. Biroq u bu holat qo'rqinchli emasligini, sabr va qat'iyat bilan qayta-qayta murojaat qilish zarurligini uqtiradi. Agar zarur bo'lsa, huquqiy bilimga ega mutaxassislar yordamidan foydalanish tavsiya etiladi. Jamiyatga ruxsat berilgach, rahbariyat saylanib, uning haqiqiy faoliyati boshlanishi qayd etiladi"- deya yozadi²⁵. M. Abdurashidxonov maktabni millat taraqqiyotining boshlang'ich poydevori deb bilgan. U xayriya asosidagi jamiyatlarni ta'lim muassasalarini barqaror qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida ko'rsatadi. Ruxsat olish jarayonida sabr, qat'iyat va huquqiy bilim muhim ekanligi alohida ta'kidlangan. Jamiyat faoliyati rahbariyat saylanishi bilan boshlangan. Bu kabi xayriya va vaqf ishlari doim ham bir tekis ketavermagani hamda jamiyat tashkil topganiga qadar katta mashaqqat zarurligi ko'rsatib berilgan. Buning uchun ham maqsadi yo'lida irodali bo'la olgan ma'rifatga intilgan ziyolilarning o'rni va mehnati alohida e'tirofga sazovordir.

- "Abdulhamid Cho'lponning²⁶ bir maqolasida Andijon shahar va uezd vaqf bo'limining 1923-yildagi faoliyati haqida so'z yuritiladi. Vaqf bo'limi o'z ishini may oyidan boshlab, shahardagi va uezddagi vaqf mulklarini ro'yxatga olish, ularga vakillar tayinlash va bu mulklarni ijaraga berish kabi tashkiliy ishlarni amalga oshirgan. Shu bilan birga, vaqf

²⁴ Abdullayev D.N. O'sha joyida 55-b

²⁵ "Sadoyi Turkiston", 1914-yil, 14-iyun/Ziyo.uz

²⁶ Abdulhamid Cho'lpon-o'zbek adabiyoti tarixida yangi davrni boshlab bergan buyuk adib, shoir, dramaturg, tarjimon va jadid ma'rifatchisi edi. U ijodda ham, ijtimoiy hayotda ham Turkiston xalqining uyg'onishi, ozodligi va taraqqiyoti uchun kurashgan.

mablag'lari hisobidan shahar maktablari, internatlar va ta'lim-tarbiya kurslariga moddiy yordam ko'rsatilgan. Biroq tashkilot hali to'liq yo'lga qo'yilmagani, daromad kamligi va ayrim idoralar bilan kelishmovchiliklar mavjudligi sababli maorif sohasiga ko'rsatilayotgan yordam cheklangan. Shunga qaramay, vaqf bo'limi "Namuna" maktabini rivojlantirish, yangi sinflar ochish, eski maktablarni ta'mirlash va ta'limni yaxshilashga harakat qilayotgani ta'kidlanadi"²⁷. Muallif vaqf bo'limi dastlab vaqf mulklarini ro'yxatga olish va ularni ijaraga berish orqali tashkilot ishlarini yo'lga qo'yishga harakat qilganini ko'rsatadi. Shuningdek, vaqf mablag'lari hisobidan maktablar, internatlar va ta'lim kurslariga yordam berilgan bo'lsa-da, moliyaviy qiyinchiliklar hamda ayrim muommolar sababli bu ishlar to'liq rivojlana olmagan aytilmoqda. Shu bilan birga, muallif maktablarni rivojlantirish, yangi sinflar ochish va eski maktablarni isloh qilish orqali maorifni yaxshilashga bo'lgan harakatlarni ham ochib bergan va aynan shu kabi harakatlar aholi o'rtasida zamonaviy bilimlarni olib kirishga va yoyishga intilgan. Bu har bitta jamiyat va har qanday yordam asnosida ko'rsatilmogda.

Munavvarqori Abdurashidxonovning "Tanlangan asarlari"²⁸dan joy olgan maqolasida shunday ko'rsatgichlar keltiriladi: " Faqat O'zbekiston Respublikasida vaqf mavjuddek ko'rinadi, boshqa joylarda esa deyarli uchramaydi. Buxoroda vaqf mulklari mamlakat hududining taxminan to'rt dan bir qismini, Xorazmda esa uchdan bir qismini tashkil etgan. Hozirda vaqf mablag'lari hisobidan (Xorazm va Buxorodan tashqari) 85 ta boshlang'ich maktabda 6638 nafar o'quvchi ta'lim olmoqda. Shuningdek, 2-3 bosqichli maktablarda 400 nafar o'quvchi, 10 ta savodsizlikni tugatish kursi va 6 ta ta'lim-tarbiya kursi faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, vaqf homiyligida klub, qiroatxona, xotin-qizlar bilim yurti mavjud bo'lib, 25 nafar talaba stipendiya oladi. Umuman olganda, vaqf daromadining 89,5 foizi ilmiy-ma'rifiy ishlarga, qolgan qismi esa idora xodimlari ehtiyojlariga sarflanadi. Jumladan, Buxoro va Xorazmda yangi ta'lim kurslari ochish, maktab binolari qurish hamda chet ellarda tahsil olayotgan talabalarga ko'proq yordam berish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga, daromad manbalarini ko'paytirish, buzilgan do'kon va binolarni ta'mirlash ham muhim vazifa sifatida belgilangan"-deya yoziladi"²⁹. Ushbu fikrlar orqali o'sha davrda vaqf tizimi aynan shu hududda faol va tizimli ravishda qayta tiklanayotganini ko'rsatiladi. Bu ham milliy davlatchilik shakllanish jarayoni bilan bir vaqtdagi jarayon edi. Xonliklardagi vaqf mulklarining ulushi katta bo'lgani ta'kidlandi. Bu esa vaqfning faqat diniy emas, balki iqtisod uchun ham muhim ekanligini anglatmoqda. Yani u davlat iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir o'tkaza boshlagan. Vaqf mablag'larining asosiy qismi ta'lim sohasiga yo'naltirilgani muhim bo'lib ayniqsa, savodsizlikni tugatish va ayollar ta'limi o'sha davr uchun muhim islohotlardan hisoblanadi. Daromadning eng ko'p miqdori

²⁷ "Farg'ona" gazetasi, 1923 yil 1-noyabr, 116-son/Ziyo.uz

²⁸ Abdurashidxonov M. "Tanlangan asarlar" Toshkent -"Ma'naviyat"-2003 178-179-b

²⁹ «Qizil O'zbekiston» gazetasi, 1924 yil, 11 dekabr

ilmiiy-ma'rifiy ishlarga sarflanishi bu asosiy maqsad foyda emas, jamiyatning rivojida edi. Yig'ilgan vaqflar asosan ta'lim, ma'rifat va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilgan. XX asr birinchi choragida Turkistonda xayriya, vaqf va ma'rifiy jamiyatlarning faoliyati xalq hayotida muhim o'rin tutgan. Jamiyatlarning tashkil etilishi, faoliyati va moliyaviy manbalari tizimli yo'lga qo'yilishiga va bularning samarali ishlashiga imkon yaratishga harakat qilingan. Shuningdek, xayriya jamiyatlari orqali yoshlarni chet ellarda o'qitish, oliy ta'lim bilan ta'minlash va ularning jamiyat taraqqiyotiga hissasini oshirish imkoniyati yaratilgan va buni aholiga yetkazish orqali ham xalqning ta'limga qiziqishini orttirish hamda ularning o'z hissalarini qo'shishlari ko'zda tutilgan. Vaqf bo'limlari esa maktablar va ta'lim-tarbiya muassasalarini qo'llab-quvvatlash orqali maorifni rivojlantirishga xizmat qilgan. Natijada, XX asr boshidagi xayriya va vaqf ishlari nafaqat ijtimoiy yordam ko'rsatish, balki Turkiston xalqi uchun milliy uyg'onish, maorif va madaniyatning mustahkam poydevorini yaratish vositasi bo'lgan. Bu jarayon jadidchilik harakati va xayriya tashkilotlari faoliyati orqali amalga oshirilib, jamiyatni taraqqiy etish va modernizatsiya qilishda muhim rol o'ynagan. Aynan ushbu harakatlarning matbuot orqali keng xalq ommasiga yoyilishi esa, nafaqat xalqqa bir chorlov, balki matbuotning yanada rivojlanishiga hissa qo'shgan. Chunki, bu omillar matbuotda yanada keng ma'lumot aylanishi va oshkoralikning rivojlanishini ham ta'minlab bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev D.N "O'zbekistonda xayriya va homiqlikning rivojlanish tarixi" Toshkent - "Innovatsiya Ziyo" - 2019
2. «Sadoyi Turkiston», 1914 yil, 14 iyun/Ziyo.uz
3. «Farg'ona» gazetasi, 1923 yil 1-noyabr, 116-son/Ziyo.uz
4. Abdurashidxonov M. "Tanlangan asarlar" Toshkent - "Ma'naviyat"-2003
5. «Qizil O'zbekiston» gazetasi, 1924 yil, 11 dekabr/www.ziyouz.com kutubxonasi